

O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari telefon orqali muloqot qildilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31 dekabr kuni Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari kirib kelayotgan yangi 2021 yil munosabati bilan bir-birlarini samimiy tabriklab, mamlakatlarning birodar xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Prezidentlar koronavirusning global miqyosda tarqalishi va jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri bilan bog'liq murakkab sharoitda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik va ko'p qirrali sheriklikni izchil rivojlantirishga erishilganini alohida ta'kidladilar.

Pandemiyaga qarshi kurashda ko'rsatilgan yordam va amaliy ko'mak uchun Turkiya tomoniga alohida minnatdorlik bildirildi.

Savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlik natijalari ham mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari va transport qatnovlari saqlab qolindi, bir yilda Turkiya investorlari ishtirokida 300 ta yangi korxonalar tashkil etildi. Ikki mamlakatning yetakchi kompaniyalari tomonidan energetika, shaharsozlik, infratuzilmani modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun Turkiyadan malakali ekspert va maslahatchilar jalb qilingan.

Madaniy-gumanitar almashinuvlar dasturi kengaymoqda.

Davlat rahbarlari O'zbekiston-Turkiya munosabatlarining butun salohiyatini samarali ishga solish va keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirish lozimligini qayd etdilar.

Yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini 5 milliard dollarga yetkazish imkonini beradigan O'zbekiston va Turkiya o'rtasida preferensiyali savdo kelishuvini tez fursatda qabul qilish muhim ekani ta'kidlandi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. 2021 yilgi ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasi ko'rib chiqildi, ularga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha birinchi galdagi choralar belgilab olindi.

O'zbekiston va Turkiya rahbarlarining telefon orqali muloqoti har doimgidek ishonch, ochiqlik va do'stlik ruhida o'tdi.

Manba